

SHARQ MUTAFAKKIRLARINING TA'LIMIY-AXLOQIY QARASHLARI

Abdurasulova Shoirra Kushakovna

Guliston davlat universiteti Boshlang'ich ta'lim metodikasi
kafedrasi o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8031851>

Annotatsiya: Mazkur maqolada Sharq mutafakkirlarining ta'lim-tarbiya, odob-axloq masalalaridagi qarashlari, islomda bolalar tarbiyasi to'g'risida so'z yuritilgan. Shuningdek, Sharq mutafakkirlarining ijodiy faoliyatidagi ta'lim-tarbiyaga oid yondashuvlar, g'oyalar, qarashlarni yosh avlodning ongiga singdirishda tarbiya usullari va vositalarini bilish, hayotda ulardan to'g'ri foydalanish pedagogik ta'lim jarayonida o'qituvchining pedagogik mahoratidagi muhim xususiyatlardan biri ekanligi ochib berilgan.

Kalit so'zlar: axloqiy qoida, tarbiya, odob, barkamol inson, insonparvarlik, ma'naviy fazilatlar, umuminsoniy qadriyatlar, milliy qadriyat, islom madaniyati.

Kirish. O'zbek xalqi o'zining uzoq tarixi davomida yaratilgan ta'lim-tarbiyaga oid boy merosga ega. Bundan tashqari, avlodlarda insonparvarlik, kamtarlik, mehnatsevarlik, do'stlik, iymon-e'tiqod, mehr-oqibat, odoblilik kabi umuminsoniy fazilatlarni shakllantirishning o'ziga xos tajribasini to'plagan. Bizga ma'lumki, ma'naviy-axloqiy fazilatlar hech qachon o'z-o'zidan vujudga kelmaydi, balki ularning kelib chiqishining haqiqiy manbai, ularni keltirib chiqargan sabablar va harakatga keltiradigan kuchlar mavjuddir. Zero, har qanday axloqiy qoidalar muayyan tarixiy zaruriyat natijasiga vujudga keladi va muayyan qonuniyat asosida rivojlanib boradi. Shuni alohida ta'kidlab o'tish kerakki, Sharq mutafakkirlarining ta'lim-tarbiyaga oid qarashlari bu tajribaning shakllanishiga ulkan ta'sir ko'rsatgan. Tarbiya ham ota-onalarning burchi va farzandlarning haqqidir. "Tarbiya" so'zi arabcha "robba" fe'lidan olingan bo'lib, o'stirdi, ziyoda qildi, rioyasiga oldi, rahbarlik qildi va isloh qildi ma'nolarini bildiradi. Musulmon ulamolar "tarbiya"ni bir necha xil ta'rif qilganlar. Jumladan, imom Bayzoviy quyidagicha ta'riflaydi: "Tarbiya bir narsani asta-sekin kamoliga etkazishdir". Rog'ib Asfihoniy tarbiyani quyidagicha ta'rif qiladi: "Tarbiya bir narsani bir holdan ikkinchi holga o'tkaza borib, batamomlik nuqtasiga etkazishdir. Tarbiyaning ma'nolaridan biri, insonning diniy, fikriy va axloqiy quvvatlarini uyg'unlik hamda muvozanat ila o'stirishdir". Islomda bolalar tarbiyasi ota-onaning eng mas'uliyatli va uzoq davom etadigan burchlaridir. Boshqa burchlar ba'zi ishlarni qilish yoki mulkni sarflash bilan oxiriga etadi. Ammo tarbiya mas'uliyati bardavom bo'ladi. Zotan, ota-onaning farzand ne'matiga haqiqiy shukrlari ham aynan tarbiya mas'uliyatini sharaf bilan ado etish orqali yuzaga chiqadi

Odob masalasini insoniyat tarixida to'laqonli ravishda Islom boshlagan, desak mubolag'a qilmagan bo'lamiz. Islomda kishining hayotidagi har bir narsaning o'z odobi bor. Dunyodagi odobga bag'ishlangan asarlarning asosini va ko'piligini Islom halqlari vakillari tomonidan yozilgan asarlar tashkil qiladi, degan gapda zarracha mubolag'a yo'q. Qadimda Sharq mutafakkirlari tomonidan ilgari surilgan qarashlar hamda g'oyalar bugungi kunda ham muhim ta'lim-tarbiyaviy manba sifatida yoshlar ongi va qalbiga ma'naviy ozuqa berib kelmoqda.

Uzoq va boy tarixga ega bo'lgan Markaziy Osiyo xalqlari o'zining ta'lim tarbiyaga oid boy merosini yaratib, takomillashtirib, yoshlarni insonparvarlik, ilmparvarlik, mehr-oqibat, mehnatsevarlik, insonlarga va tabiatga do'stlik, sahiylik kabi umuminsoniy fazilatlar ruhida tarbiyalab kelishgan. Darhaqiqat, ajdodlarimiz tomonidan qoldirilgan bebaho madaniy meros

milliy ma'naviyatimizning o'zagini tashkil etadi. Shu sababli undan bugun yoshlarimizning ta'lim va tarbiyasiga keng foydalanish maqsadga muvofiqdir. Chunki, "Ajdodlarimizdan qolgan meros millatimizning nafaqat o'tmishi, shuningdek, istiqboli uchun ham kuch va fidoiylik manbai hisoblanadi"

Har bir xalqning ta'lim-tarbiyaga oid an'analari borki, ular pedagogik tafikkur taraqqiyotining asosi bo'lib xizmat qiladi va bola tarbiyasi haqidagi tasavvurlar va qarashlarni ifodalaydi. Yuqorida aytganimizdek, har bir ota ona o'z farzandlarini barkamol inson bo'lishini istaydi, o'zlari eta olmagan orzuomidlariga bolalarining etishligini o'ylaydi. Bolalarning har bir yutug'idan quvonishadi, mag'lubiyatidan tashvishga tushishadi. Farzandlarini baxtli ko'rish ular uchun eng baxtiyor damlar hisoblanadi. Buning uchun ularga bor kuch-quvvatini sarflashadi. O'tmishda buyuk allomalarimiz, yuksak darajadagi ma'naviyat, axloq-odob saboqlarini berganliklari, Vatan, xalq istiqboli, farovon turmush, halol mehnat, fan taraqqiyoti, inson mehnati, atrof-muhitga oqilona munosabat haqidagi o'z qarashlarini bayon qilib berganliklariga guvoh bo'lamiz.

Mana shunday mangu allomalar jumlasiga Ahmad Yassaviyni kiritish mumkin. Xoja Ahmad Yassaviy o'zining ma'naviy-axloqiy qarashlari bilan bugungi kunda ham pedagogika faniga beqiyos qo'sha olganligi olib borilgan izlanishlardan ayon bo'lmoqda. "Xoja Ahmad Yassaviyning nuqtai nazariga ko'ra ayyorlik, gunohlarni yashirish o'zgalarga xiyonat hisoblanadi. Bu fikrlari bilan Xoja Ahmad Yassaviy rostgo'ylik, halollik, o'z-o'ziga talabchanlikni targ'ib qiladi. Zahmat chekkan odam sabrli, bardoshli, irodali bo'ladi, degan fikrni ilgari suradi. Hushyorlik shaxsni faol harakat qilishga undaydi. Xoja Ahmad Yassaviy hikmatlari o'quvchi shaxsini xushyorlikka, faol harakatlanishga, fitnalardan, fisqu fasod ishlardan o'zini olib qochishga undaydi" Shu sababli ham ta'lim tarbiya jarayonida ulardan keng foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili (Literature review). Abdulla Avloniyning "Muxtasar tarixi anbiyo va tarixi Islom" asari mavjud. Ushbu asar boshlang'ich maktablarning o'quvchilariga mo'ljallangan. Risolada Odam alayhissa-lomdan Muhammad alayhissalomgacha o'tgan payg'ambarlarning qissalari va zuhuri islom zikr etilgan.

Islom tarixi fanida payg'ambarlar tarixi, payg'am-barimiz Muhammad alayhissalomning hayotlari va Islom dini tarixi, shuningdek, ilk xalifalik davri tarixi uch bosqichda o'rganiladi. Nasiruddin Rabg'uziyning "Qissayi Rabg'uziy", Alisher Navoiyning "Tarixi anbiyo va hukamo" asarlari payg'ambarlar tarixiga oid bo'lsa, Alixonto'ra Sog'uniyning "Tarixi Muhammadiy"si ikkinchi va Rizoud-din ibn Faxrud-dinning "Xulafoi roshidin" asari uchinchi davrni o'z ichiga oladi.

Allomalar Muhammad al-Xorazmiy (787-850 yillar), Abu Nasr Forobiy (870-950 yillar), Al-Kindiy (800-870 yillar), Abu Rayhon Beruniy (973-1050 yillar), Abu Ali ibn Sino (980-1037 yillar) va boshqalar uning asoschilari sifatida mashhur bo'ldilar. Bu madaniyatning asosiy markazlari Suriya, Eron, Markaziy Osiyo hududlarida joylashgan. Sharq mutafakkirlari o'z asarlarida ta'lim usullari, qoidalari, tamoyillari, metodlari va shakllari asosida ta'lim amaliyotining mohiyatini ifoda etadilar.

Jaloliddin Rumiy ham "Ma'naviy masnaviy"ida inson xulq-atvoridagi salbiy xususiyatlar borasida o'z qarashlarini bildiradi. U adovat, badjahillik, hasadgo'ylik, aybjo'ylik, g'araz, qahr-g'azabni qattiq qoralaydi va insonning eng qabih illatlari sifatida tavsiflaydi.

Jaloliddin Rumiy o'zining "Ma'naviy masnaviy"da insoniyatning agressivlikka moyilligi, agressiv reaksiyalar, agressiv xulq-atvor shakllari xususida qarashlarini bayon etadi.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Sharq mutafakkirlarining ta'lim-tarbiya, oila va oilaviy tarbiya haqidagi qarashlari islom mafkurasi va uning qobig'ida shakllangan. Sharq mutafakkirlari ijodida aks etgan umuminsoniy g'oyalar islomiy ma'naviyat bilan hamohangdir. Sharq mutafakkirlari o'z ilmiy meroslarida oila va oilada farzand tarbiyasi masalalariga katta e'tibor berganlar. Muhammad ibn Muso al Xorazmiy, Abu Nasr Farobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali Ibn Sino, Muhammad Qoshg'ariy, Yusuf Xos Hojib, Kaykovus, Alisher Navoiy, Husayn Voiz Koshifiy kabi mutafakkirlarning qator asarlarida bolalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash masalalari o'rta qo'yilgan va ularni hal etish yo'llari ko'rsatib berilgan. Oilada bola tarbiyasi masalasi Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy qarashlarida ham mavjuddir. Uning aytishicha, "Ota-onalar ikki xil: tug'ilish otasi va ta'lim berish otasi: birinchisi jismoniy hayot sababli, ikkinchisi ruhiy hayot sababli". Shunga ko'ra ularni uzviy birlikda olib qarash tarbiya ishida muhim ahamiyatga molikdir. Uning quyidagi so'zlari anchayin ibratlidir: "Zamondan yaxshiroq ta'lim beruvchi muallimni, insondan yaxshiroq ta'lim oladigan o'quvchini ko'rmadim". Uning bu so'zlaridan bir tomondan ijtimoiy muhitni bola tarbiyasi uchun hal q iluvchi ta'sirini anglasak, ikkinchi tomondan inson shaxsi ta'lim natijasida kamolotga erishib borishi mumkinligini sezamiz. Abu Rayhon Beruniy insonning axloqiy fazilatlarini, umuman, axloqiy tushunchalarini insonning tabiati bilan bog'laydi. Inson tabiati esa, avvalo, oilada shakllanadi. Shunga ko'ra bola tarbiyasida ota-ona ta'siri benihoya kattadir. Masalan, u ayollarga nasihat qilib, Abdulla ibn Jafar tilidan shunday deb yozadi: "Rashkdan saqlangin. U taloqning kalitidir. Oila va oilada bola tarbiyasi masalasi Abu Ali Ibn Sinoning ilmiy merosida ham muhim o'rin egallaydi. Ibn Sinoning "Tadbiri al-manozil" nomli asarida katta bir bob oila va oilaviy tarbiya masalalariga bag'ishlangandir. XI asrda yashab ijod etgan mutafakkir Yusuf Xos Hojib o'zining "Qutadg'u bilig" asarida bola tarbiyasi haqida to'xtalib, shunday yozadi: "Farzand qanchalik bilimli, aqlli-xushli bo'lsa, ota-onasining yuzi shunchalik yorug' bo'ladi". U bola tarbiyasida otaning mas'uliyatiga alohida e'tibor beradi. Sharqda keng tarqalgan pandnoma tarzida yozilgan mashhur asarlardan biri Unsurul ma-oliy Kaykovusning "Qobusnoma"sidir. Bu asar Sharq pedagogik fikr taraqqiyotida muhim o'rinni egallaydi va qanchadan-qancha avlodlarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda o'z hissasini qo'shib kelmoqda.

"Qobusnoma" falsafiy-didaktik asar bo'lib, shaxs shakllanishining barcha tomonlarini o'z ichiga oladi. Uning "Farzand parvarish qilmoq zikrida" degan bobi bevosita oiladagi bola tarbiyasiga bag'ishlanadi.

"Qobusnoma"da ota-onaning qator vazifalari sanab o'tiladi. Ular quyidagilardan iborat:

1. Bolaga yaxshi ism qo'yish;
2. Oqil va mehribon enagaga topshirish;
3. To'y-tomosha qilib, sunnat to'y o'tkazish;
4. O'qish – yozishni o'rgatib, kasb-hunar va ilmiy qilish;
5. Harbiylar ahlidan bo'lsa, sipohiylikni o'rgatish.

Kaykovus bola tarbiyasida talabchanlik bilan mehribonlikni birga olib borish lozimligini ta'kidlaydi. "Yosh bola ilm bilan odobni tayoq bilan o'rganur, o'z ixtiyori bilan o'rganmas. Ammo farzand beadab bo'lsa va sening ul sababdan qahrining kelsa, o'z qo'ling bilan urmagan, muallimlarning tayog'i bilan qo'r qitgil. Bolalarga muallimlar adab bersinlar, toki sendan

o'g'lingni ko'nglida gina qolmasin". Kaykovusning "Qobusnoma" asari bugungi kunda ham axloqiy qadriyat sifatida yosh avlodni ma'naviy - axloqiy ruhda tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etib kelmoqda.

Alisher Navoiy "Mahbub ul-qulub" asarida insoniy fazilatlar va ezguliklarni madh etib, targ'ibu-tashviq etish bilan cheklanmay, ayni zamonda odamlardagi yomon, xunuk, insoniylikka xilof xislatlarni, insonlar uchun, jamiyat uchun zararli, sharaflı inson sha'niga yarashiqsiz xulq-atvor va sifatlarini tanqid qiladi. Achchiq so'zlik, nodonlik, yomon qiliqlilik, yolg'onchilik kabi illatlarga berilgan kishilarni qoralaydi. Navoiy ana shu yomon, yaramas xislatlardan, illatlardan odamlarni xoli ko'rishni istaydi. Karamli, muruvvatli, sadoqatli, yumshoq ko'ngilli, shirinsuhan, muloyim bo'lish kabi bir talay fazilatlarini Navoiy ko'klarga ko'tarib madh etadi.

"Achchiq tillik" eng yomon xususiyatlardan biri ekanligi haqida Alisher Navoiy shunday yozadi: "Achchiq til zaharli nayzadek sanchiladi. Ko'ngilda til nayzasining jarohati bitmas, unga hech narsa malham bo'la olmaydi". Uning bu fikrida verbal agressiya, ya'ni salbiy his-tuyg'ularni og'zaki tarzda ifodalash shakli o'z aksini topganligini ko'rishimiz mumkindir.

Bundan tashqari, Abu Ali Ibn Sino axloqlikning asosini yaxshilik va yomonlik kabi ikki tushuncha bilan ta'riflaydi. Ibn Sino inson kamolotining muhim axloqiy jihatlarini ham tahlil etadi va har biriga ta'rif beradi. Masalan, adolatni ruhiy lazzatning bosh mezoni sanaydi. Inson qanoat, jasurlik, donolik bilan adolatga ega bo'ladi, yomon illatlardan o'zini tiyib, yaxshilikni mustahkamlaydi, haqiqiy ruhiy lazzat oladi, deydi olim. Insondagi ijobiy axloqiy xislatlarga saxiylik, chidamlilik, kamtarlik, sevgi-muhabbat, mo'tadillik, aqllilik, ehtiyotkorlik, qat'iyatlilik, sadoqat, intilish, uyatchanlik, ijrochilik va boshqalarni kiritadi.

Inson hissiy va ma'naviy talablarni ajratib olish imkoniyatiga ega ekan, bu imkoniyat astasyokin inson fe'l-atvoriga xos xislatga aylana boradi. Ibn Sino insonning shakllanishida uning atrofini o'rab olgan tashqi muhit, odamlar alohida muhim rol o'ynaydi, ana shu tashqi muhit va odamlar insonning atrof-dunyoni bilishgagina emas, balki uning xulqida yaxshi yoki yomon jihatlarining tarkib topishiga ham ta'sir etadi. Shuning uchun ham bolalarni tarbiyalashda ehtiyotkor bo'lish kerakligini, bola yomon odatlarga o'rganmasligi uchun, uni yomon odatlardan, yomon muhitdan uzoqroq saqlash zarurligini uqtiradi. Ibn Sinoning tarbiyalash masalalariga keng o'rin berilgan. Chunki inson avvalo oilada kamolga yetadi.

- Tahlil va natijalar (Analysis and results). Tarbiya o'z navbatida oiladan boshlanar ekan, biz o'z farzandlarimizni baxtisaodatini, kamolini, iqbolini, buyuk inson bo'lib etishganligini va hayot abadiyligi avlodlar davomiyligini ta'minlaydigan ma'naviy qo'rg'oni bo'lmish o'z oilamizning mustahkamligini ko'rishni istar ekanmiz, demak oilada tarbiyalanuvchilarimizni har tomonlama sog'lom va barkamol etib tarbiyalashda tarbiyaning barcha turlariga e'tiborni kuchaytirish muhim ahamiyat kasb etadi. Ota-bobolarimizdan qolgan boy ma'naviy merosning yosh avlodni har tomonlama yuksalishi tizimidagi o'rni va roli o'ziga xos xususiyatga va ko'rinishlarga ega. "Darhaqiqat, ajdodlar tomonidan yaratilgan tarbiyaviy qadriyatlarni o'rganishda ta'lim tizimi imkoniyatlarga alohida e'tibor qaratishlozim. Sharq mutafakkirlarining asarlarini o'rganish, tahlil qilish, ularning ijodi va ta'lim-tarbiyaga oid qarashlarini pedagogik nuqtai nazardan tadqiq etish muhim amaliy ahamiyatga ega". Ular o'z asarlarida shaxs ma'naviyati, insonda odob-axloqning yuksak namunalarini tarkib toptirish, oila, nikoh, farzand tarbiyasi, halol mehnat bilan kun kechirish, atrof-muhitga nisbatan oqilona munosabatda bo'lishga oid qarashlarni bayon qilganlar.

Shunday qilib, inson va uni tarbiyalash masalalari Sharq mutafakkirlari va allomalari o'z asarlarida insonning bilim olishi, hunar egallashi, undagi yuksak ma'naviy-ahloqiy sifatlarini ulug'laydilar va shunday fazilatlarga ega bo'lishga barchani chorlaydilar. Ma'naviy yuksak, zamonaviy ilm-fanni egallagan, ajdodlarimizning boy ma'naviy merosga sohib chiqqan avlodni hech qanday tashqi kuch, g'oya yoki mafkura aslo o'z ta'siriga tushira olmaydi. Bunday avlodni voyaga etkazgan xalqning istiqboli porloq, kelajagi buyukdir.

- Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Yoshlarni ma'naviy tarbiyalash — o'ta nozik va mas'uliyatli ish. Yoshlarni ma'naviy tarbiyalashda ularning yoshi, xohishi, intellektual, ruhiy tayyorgarligini hisobga olish kerak. Yoshlar ma'naviy-axloqiy sifatlarining ifodasi bo'lgan ruh (aql) nodir hodisa bo'lib, tez o'sishga moyildir. Yoshlarni ma'naviy — ma'rifiy ruhda tarbiyalashda yoshlardagi taqlid, ta'sirlanish, tormozlanishdan kuchliligini, kuchli ruhiy ta'sirlanish bosh miya yarim sharlaridan ayri, «maslahatlashmay» sodir bo'lishini va bunday hollarda ular o'zlari bilmagan holda zid hatti-harakatlar sodir etishi, jiddiy xatolarga ham yo'l qo'yishini inobatga olish zarur. Shuningdek, yoshlar ta'sirga beriluvchan, ongiga o'z atrof-tevaragidagi voqealarni tez singdiruvchan bo'ladi. Bu voqealar yoshlarning his-tuyg'usidan mustahkam o'rin olib, ichki olamiga ruhiyatiga ta'sir ko'rsatadi. Bu esa yoshlarni maksimal fikrlaydigan, turli xil emotsiya va ambitsiyalarga tez uchadigan demografik qatlam ekanini ko'rsatadi. Shuning uchun barkamol avlodni shakllantirishda pok, sog'lom bo'lgan ijtimoiy muhitni, sog'lom ruhdan oziqlanib to'g'ri yo'nalish olishni ta'minlash talab etiladi. Buning uchun yoshlarni ma'naviy tarbiyalashda quyidagilarga e'tibor qaratish kerak bo'ladi. Avvalo, ustoz yoki ota-ona tomonidan rag'batlantirib, boshqarib turilishi orqali yoshlarda etishmaydigan shaxsiy muloqot, jamoada yashash tajribasi, qiyoslab tahlil qilish malakasini oshirishga e'tibor qaratishga to'g'ri keladi. Yoshlarni ma'naviy-ma'rifiy ruhda tarbiyalashda ustoz, sinf rahbari va ota-onalar orasida hamkorlikni yo'lga qo'yish samarali usul hisoblanadi.

References:

1. Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf. Baxtiyor oila. T.: "Hilol-nashr". 2013 y.
2. A.Haydarov. Inson kamoloti va milliy-ma'naviy qadriyatlar. T.: Muharrir, 2008 y.
3. M.Xajiyeva. Xoja Ahmad Yassaviyning ma'naviy-tarbiyaviy qarashlari. Avtoreferat. T.: 2004 y.
4. M.Shoxadjayev. Burxoniddin Marg'inoniyning axloqiy-huquqiy tarbiyaga oid qarashlari. Avtoreferat. T.: 2006 y.
5. M.Hamdamova. Ma'naviyat asoslari. T.: "Fan va texnologiya". 2008 y.
6. S.Dolimov, U.Dolimov. Kaykovus unsurulmaoniy qobusnoma T.: "Istiqlol" 1994 y.
7. San'at – yoshlar nigohida. Magistrantlarning ilmiy-amaliy konferentsiyasi materiallari. T.: 2019 y.
8. A.Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq. T.: O'qituvchi. 1992 y.
9. Y.Abdullayev. Eski maktabda xat-savodga o'rgatish. T.: 1960 y. 38-bet
10. I.Karimov. Yuksak ma'naviyat – engilmas kuch. T.: Ma'naviyat, 2008 y.
11. Sh.Mirziyoyev. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganligining 24 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimidagi ma'ruzasi. T.: 2016 y.
12. Z.B.Jalilov. Sharq mutafakkirlari merosini o'rganishning didaktik metodlari. Zamonaviy ta'lim jurnali. 2017 yil, 5-son.